OILA VA TA’LIM MUASSASASI HAMKORLIGIDA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-ADAPTIV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Nazarova Ra’no Sidiq qizi
Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
A.Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23164890

Annotatsiya. Maqolada oila va ta’lim muassasasi hamkorligida o‘quvchilarning ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari ko‘rib chiqiladi. Unda motivatsiya, o‘zini nazorat qilish, huquqiy savodxonlik, muloqot madaniyati, empatiya va qadriyatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod, shakl va vositalar yoritiladi. Shuningdek, hamkorlikka asoslangan tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bosqichlari hamda tajriba-sinovda qo‘llanilgan baholash mezonlari tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: oila, ta’lim muassasasi, hamkorlik, ijtimoiy-adaptiv ko‘nikma, o‘zini nazorat qilish, muloqot, empatiya, huquqiy savodxonlik, tarbiya metodikasi.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы формирования социально-адаптивных навыков учащихся во взаимодействии семьи и образовательного учреждения. Освещаются методы, формы и средства развития мотивации, самоконтроля, правовой грамотности, культуры общения, эмпатии и ценностного отношения. Также анализируются этапы организации воспитательной деятельности на основе сотрудничества и критерии оценивания, использованные в опытно-экспериментальной работе.
Ключевые слова: семья, образовательное учреждение, сотрудничество, социально-адаптивные навыки, самоконтроль, общение, эмпатия, правовая грамотность, методика воспитания.

Abstract. The article examines the methodological foundations for developing students’ social-adaptive skills through cooperation between the family and the educational institution. It describes methods, forms and tools aimed at developing motivation, self-control, legal literacy, communication culture, empathy and value-based attitudes. It also analyzes the stages of organizing collaborative educational activity and the assessment criteria used in the experimental work.
Keywords: family, educational institution, cooperation, social-adaptive skills, self-control, communication, empathy, legal literacy, educational methodology.

KIRISH

Zamonaviy tarbiya jarayonida o‘quvchining ijtimoiy muhitga moslasha olishi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishi, muloqotda ijtimoiy me’yorlarga rioya etishi va mas’uliyatli qaror qabul qilishi muhim pedagogik natija hisoblanadi. Bunday ko‘nikmalar faqat maktabdagi

tarbiyaviy tadbirlar orqali emas, balki oiladagi kundalik munosabatlar, ota-ona namunasining barqarorligi va maktab bilan muntazam hamkorlik jarayonida shakllanadi. Shu sababli oila va ta’lim muassasasi faoliyatini o‘zaro kelishilgan maqsad, mazmun, metod va natijalar asosida tashkil etish tarbiya metodikasining muhim masalalaridan biridir.

O‘zbek pedagogik tadqiqotlarida ta’limdagi ijtimoiy hamkorlik o‘quvchi rivojlanishi va tarbiyasidan manfaatdor teng huquqli subyektlarning birgalikdagi faoliyati sifatida talqin qilinadi. B.Q. Mamanazarov, U.R. Rustamov va Sh. Bekzatova zamonaviy ta’limda ijtimoiy hamkorlikning mazmunini maktab, oila va boshqa ijtimoiy subyektlarning umumiy maqsad sari o‘zaro muvofiqlashgan faoliyati bilan bog‘laydi[1]. Mazkur yondashuv tarbiyaviy ta’sirlarni parchalangan holda emas, balki o‘quvchi uchun yagona pedagogik muhit sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Rus pedagogik maktabida ham oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi profilaktik tarbiyaning asosiy pedagogik sharti sifatida qaraladi. N.E. Garicheva[2] o‘quvchilar bilan ishlashda maktabni oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini birlashtiruvchi markaz sifatida belgilash, subyekt-subyekt munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va hamkorlikning maxsus tashkiliy shakllaridan foydalanishni asoslagan. Preventologik yondashuvda esa muammoning oqibati bilan kurashishdan ko‘ra, xavf omillarini erta aniqlash va shaxsning moslashuv resurslarini kuchaytirish ustuvor sanaladi[3].

Xorijiy tadqiqotlarda ham oilaning, maktabning va boshqa ijtimoiy subyektlarning uyg‘un ta’siri bolalarning ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘lanadi. I. Blažević oila, maktab va tengdoshlar ta’sirini yaxlit ko‘rib chiqib, maktab faoliyatini bolalarning bilimlari bilan bir qatorda ijtimoiy ko‘nikmalarini namoyon etish va rivojlantirishga yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi[4]. Yoshlar xulqidagi xavfli tendensiyalarning oldini olish bo‘yicha J.J. Sugimoto-Matsuda va K.L. Braun tahlillari ham ko‘p subyektli, formalizatsiyalangan hamkorlikning profilaktik siyosat va amaliyot uchun ahamiyatini ko‘rsatadi[5].

Maqolaning maqsadi oila va ta’lim muassasasi hamkorligida o‘quvchilarning ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasining mazmuni, bosqichlari, metodlari va

---

[1]Mamanazarov B.Q., Rustamov U.R., Bekzatova Sh. Zamonaviy ta’limda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish faoliyatining mazmuni va xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 1, Issue 3. [Elektron resurs]. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-ta-limda-ijtimoiy-hamkorlikni-amalga-oshirish-faoliyatining-mazmuni-va-xususiyatlari

[2] Гаричева Н.Е. Взаимодействие школы, семьи и общественности по предупреждению правонарушений учащихся: дис. ... канд. пед. наук. – Смоленск, 2012. – 190 с. [Электронный ресурс]. – URL: https://www.nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-01/dissertaciya-vzaimodeystvie-shkoly-semi-i-obschestvennosti-po-preduprezhdeniyu-pravonarusheniy-uchaschihsya

[3] Крутько И.С., Пономарев А.В. Введение в превентологию: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 2019. – 143 с. [Электронный ресурс]. – URL: https://www.directmedia.ru/book-697286-vvedenie-v-preventologiyu/

[4] Blažević I. Family, Peer and School Influence on Children’s Social Development // World Journal of Education. – 2016. – Vol. 6, No. 2. – P. 42–49. DOI: 10.5430/wje.v6n2p42. URL: https://www.sciedu.ca/journal/index.php/wje/article/view/8873/0

[5] Sugimoto-Matsuda J.J., Braun K.L. The Role of Collaboration in Facilitating Policy Change in Youth Violence Prevention: A Review of the Literature // Prevention Science. – 2014. – Vol. 15, No. 2. – P. 194–204. DOI: 10.1007/s11121-013-0369-7. URL: https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/23430580/

baholash mezonlarini asoslash hamda tajriba-sinov natijalari asosida uning pedagogik samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa, suhbat, ekspert baholash va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Empirik bosqichga jami 302 nafar voyaga yetmagan o‘quvchi jalb etilib, ulardan 150 nafari tajriba guruhini, 152 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Metodika oila va ta’lim muassasasi hamkorligida amalga oshirilgani sababli ota-onalar bilan ishlash, pedagogik maslahat, mashqlar va ish daftarlari ham tajriba mazmuniga kiritildi.

Metodikaning metodologik asosi oilaga yo‘naltirilgan, tizimli va kompleks yondashuvlar birligidan iborat bo‘ldi. Oilaga yo‘naltirilgan yondashuvda oila tarbiyaviy jarayonning tashqi kuzatuvchisi emas, faol subyekti sifatida ishtirok etdi; tizimli yondashuv mashg‘ulotlar va pedagogik ta’sirlarning ketma-ketligini ta’minladi; kompleks yondashuv esa pedagog, ota-ona, psixolog va zarur hollarda boshqa mutaxassislarning resurslarini birlashtirdi. M. Ljubetić, A. Mandarić Vukušić va K. Pezo bolalar hamda oilalar duch keladigan murakkab muammolarni hal etishda turli yordamchi mutaxassislar o‘rtasidagi sifatli hamkorlikni muhim omil sifatida ko‘rsatadi[6].

Tarbiyaviy faoliyat uch bosqichda tashkil etildi: axborot-tayyorlov, tashkiliy-faoliyat va natijaviy-baholash. Birinchi bosqichda o‘quvchi va oilaning ehtiyojlari, mavjud qiyinchiliklar hamda tarbiyaviy resurslar o‘rganildi; ikkinchi bosqichda mashqlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, suhbat, bahs va ish daftari bilan ishlash orqali ko‘nikmalar rivojlantirildi; uchinchi bosqichda esa o‘zgarishlar belgilangan mezonlar asosida baholandi.

NATIJALAR

Nazariy va empirik tahlil ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarni birgina “ijtimoiy moslashuv” ko‘rsatkichi bilan cheklash metodik jihatdan yetarli emasligini ko‘rsatdi. O‘quvchining moslashuvi o‘zini motivatsiyalash, impuls va hissiyotlarni boshqarish, ijtimoiy me’yorlarni tushunish, huquq va majburiyatlarni anglash, muloqotda empatiya ko‘rsatish, ratsional qaror qabul qilish hamda barqaror qadriyatli pozitsiyani namoyon etish kabi o‘zaro bog‘langan ko‘nikmalar orqali ifodalanadi. Shu sababli metodik tizimda ko‘nikmalar motivatsion, xulqiy-o‘zini boshqarish, huquqiy-kognitiv, kommunikativ-emotsional va qadriyatli yo‘nalishlarga birlashtirildi.

1-jadval

Ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarni shakllantirishning metodik tarkibi

Yo‘nalish	Shakllantiriladigan ko‘nikmalar	Asosiy metodik vositalar
Motivatsion	maqsad qo‘yish, motivatsiya, vazifani yakunlash	rag‘bat, ijodiy topshiriq, muvaffaqiyat vaziyati
O‘zini boshqarish	hissiyot va impulsni boshqarish, kun tartibi	kuzatuv varag‘i, vaziyatli mashq, refleksiya

[6]Ljubetić M., Mandarić Vukušić A., Pezo K. Pedagogues and Social Workers – Challenges of Collaboration // European Scientific Journal. – 2018. – Vol. 14, No. 6. DOI: 10.19044/esj.2018.c3p14. URL: https://eujournal.org/index.php/esj/article/view/10591

Yo‘nalish	Shakllantiriladigan ko‘nikmalar	Asosiy metodik vositalar
Huquqiy-kognitiv	huquq va majburiyat, oqibat, ratsional qaror	case, muammoli vaziyat, bahs
Kommunikativ-emotsional	tinglash, muloqot, tushunish, empatiya	suhbat, rolli vaziyat, guruh mashqi
Qadriyatli	ijtimoiy me’yor, mas’uliyat, prosotsial pozitsiya	hikoya tahlili, refleksiya, qo‘shma vazifa

Metodik jihatdan oila va maktabning vazifalari bir-birini takrorlamasdan, o‘zaro to‘ldirishi ko‘zda tutildi. Maktab pedagogik vaziyatni loyihalash, diagnostika va refleksiv tahlilni tashkil etish vazifasini bajarsa, oila ko‘nikmalarning kundalik xulqda takrorlanishi va mustahkamlanishi uchun tabiiy tarbiyaviy muhit yaratdi. Ota-onalar bilan yuzma-yuz suhbat, qisqa pedagogik maslahat, uy sharoitidagi qo‘shma topshiriqlar va bolaning yutug‘ini qo‘llab-quvvatlash usullari metodikaning muhim bo‘g‘ini sifatida belgilandi.

Pedagogik ta’sirda buyruqbozlikdan ko‘ra tushuntirish, ishontirish, muammoli vaziyatni tahlil qilish va tanlov oqibatini muhokama qilish ustuvor bo‘ldi. Bunda o‘quvchi tayyor xulq namunalarini yodlamaydi, balki vaziyatni tahlil qiladi, qarorning mumkin bo‘lgan oqibatlarini solishtiradi va o‘z tanlovini asoslaydi. Shu orqali tashqi nazorat asta-sekin o‘zini nazorat qilish va mas’uliyatli xulqqa aylantirilishi ko‘zda tutildi.

2-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarida yuqori daraja ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, %

Ko‘rsatkich	Nazorat avval	Nazorat so‘ng	Tajriba avval	Tajriba so‘ng
O‘z-o‘zini motivatsiyalash	31,6	34,2	22,6	29,4
Ratsional qaror qabul qilish	28,3	29,6	31,4	39,3
Muloqot madaniyati	18,4	19,7	17,1	29,3
Hissiyotlarni boshqarish	30,3	27,6	28,7	37,6
Qadriyatlar tizimi	49,3	47,4	35,3	52,7

Jadval ma’lumotlari tajriba guruhida ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarning turli komponentlari bo‘yicha yuqori darajadagi ko‘rsatkichlar o‘sganini ko‘rsatadi. Eng katta o‘sish qadriyatlar tizimida 17,4 foiz punktni, muloqot madaniyatida 12,2 foiz punktni, hissiyotlarni boshqarishda 8,9 foiz punktni va ratsional qaror qabul qilishda 7,9 foiz punktni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ko‘rsatkichlarning aksariyatida kichik tabiiy siljishlar yoki ayrim pasayishlar kuzatildi.

Irodaviy o‘z-o‘zini nazorat qilish diagnostikasida ham tajriba guruhidagi umumiy ko‘rsatkich o‘rtacha 13 balldan 20 ballgacha oshib, o‘rta darajadan yuqori darajaga ko‘tarildi; nazorat guruhida sezilarli o‘zgarish qayd etilmadi. Umumiy samaradorlik bo‘yicha hisoblangan Student mezonining empirik qiymati 6,665 ni tashkil etib, 0,05 ahamiyatlilik darajasidagi kritik qiymatdan (1,96) yuqori bo‘ldi. Bu tajriba va nazorat guruhlari yakuniy natijalari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda alohida mashq yoki bir martalik profilaktik suhbat yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ko‘nikma o‘quvchining maktabdagi mashg‘ulotda bajargan harakati oilada qo‘llab-quvvatlanib, kundalik vaziyatlarda qayta namoyon bo‘lgandagina barqarorlashadi. Shu nuqtayi nazardan, oila va ta’lim muassasasi hamkorligi metodikaning tashkiliy fonigina emas, balki o‘quv natijasining shakllanish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorijiy adabiyotlarda ham bolalar ijtimoiy rivojlanishi oila va maktab ta’sirining birligi bilan tushuntiriladi. Blaževićning yondashuvida o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona maktab faoliyatining hamyaratuvchilari sifatida ko‘rilishi ijtimoiy ko‘nikmalarni real faoliyatda namoyon etishga imkon beradi[7]. Sugimoto-Matsuda va Braun ko‘p subyektli hamkorlikning profilaktik tashabbuslarni kengroq tizimiy o‘zgarishlarga olib chiqish imkoniyatiga e’tibor qaratadi[8]. Bu qarashlar tajriba metodikasidagi “maktabda shakllantirish – oilada mustahkamlash – qayta refleksiya qilish” ketma-ketligining nazariy asosini kuchaytiradi.

Mazkur natijalarning metodik ahamiyati shundaki, ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarni tarbiyaviy faoliyatning aniq o‘lchanadigan natijalariga aylantirish mumkin. Pedagog darsdan tashqari tarbiyaviy ish yoki sinf rahbarligi jarayonida “hamkorlikni kuchaytirish” kabi umumiy vazifadan ko‘ra, o‘quvchida qaysi ko‘nikma – masalan, hissiyotini boshqarish, asoslangan qaror qabul qilish yoki empatik muloqot – rivojlanishini oldindan belgilashi kerak. Shunda metod, topshiriq, ota-ona bilan ishlash shakli va baholash ko‘rsatkichi yagona metodik zanjirni tashkil etadi.

Metodikaning yana bir xususiyati tarbiyaviy ta’sirni o‘quvchining ichki nazoratini kuchaytirishga yo‘naltirishidir. Jazolash yoki qat’iy tashqi nazorat qisqa muddatda xatti-harakatni cheklashi mumkin, biroq o‘quvchi qarorning sababini tushunmasa va o‘z harakati oqibatini baholamasa, xulqning barqaror o‘zgarishi qiyinlashadi. Shu sababli refleksiya, tanlov vaziyatlari, muammoli topshiriqlar va ota-ona bilan ishonchli muloqot metodik tizimning markaziy vositalari sifatida qaraldi.

XULOSA

Oila va ta’lim muassasasi hamkorligida ijtimoiy-adaptiv ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi o‘quvchi, ota-ona va pedagogning o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatiga tayanadi. Mazkur metodikada motivatsion, o‘zini boshqarish, huquqiy-kognitiv, kommunikativ-emotsional va qadriyatli ko‘nikmalar o‘zaro bog‘langan natijalar sifatida qaralib, ularni rivojlantirish uchun muammoli vaziyat, suhbat, bahs, mashq, ijodiy topshiriq, refleksiya va ish daftari kabi vositalar kompleks qo‘llanadi.

Tajriba-sinov ko‘rsatkichlari muloqot madaniyati, hissiyotlarni boshqarish, ratsional qaror qabul qilish va qadriyatli munosabatlarda tajriba guruhi foydasiga ijobiy dinamikani qayd etdi. Metodik jarayonning samaradorligi o‘quvchida shakllangan ko‘nikmalarning

[7] Blažević I. Family, Peer and School Influence on Children’s Social Development // World Journal of Education. – 2016. – Vol. 6, No. 2. – P. 42–49. DOI: 10.5430/wje.v6n2p42. URL: https://doi.org/10.5430/wje.v6n2p42

[8] Sugimoto-Matsuda J.J., Braun K.L. The Role of Collaboration in Facilitating Policy Change in Youth Violence Prevention: A Review of the Literature // Prevention Science. – 2014. – Vol. 15, No. 2. – P. 194–204. DOI: 10.1007/s11121-013-0369-7. URL: https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC4704786/

oiladagi kundalik munosabatlarda qo‘llab-quvvatlanishi va pedagogik refleksiya bilan qayta bog‘lanishi orqali ta’minlanadi. Shu bois tarbiyaviy ishlarni loyihalashda maktab va oilaning vazifalarini umumiy maqsad, aniq ko‘nikma, mos metod va o‘lchov mezoni atrofida birlashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamanazarov B.Q., Rustamov U.R., Bekzatova Sh. Zamonaviy ta’limda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish faoliyatining mazmuni va xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 1, Issue 3.
2. Гаричева Н.Е. Взаимодействие школы, семьи и общественности по предупреждению правонарушений учащихся: дис. ... канд. пед. наук. – Смоленск, 2012. – 190 с.
3. Крутько И.С., Пономарев А.В. Введение в превентологию: учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 2019. – 143 с.
4. Blažević I. Family, Peer and School Influence on Children’s Social Development // World Journal of Education. – 2016. – Vol. 6, No. 2. – P. 42–49. DOI: 10.5430/wje.v6n2p42.
5. Sugimoto-Matsuda J.J., Braun K.L. The Role of Collaboration in Facilitating Policy Change in Youth Violence Prevention: A Review of the Literature // Prevention Science. – 2014. – Vol. 15, No. 2. – P. 194–204. DOI: 10.1007/s11121-013-0369-7.
6. Ljubetić M., Mandarić Vukušić A., Pezo K. Pedagogues and Social Workers – Challenges of Collaboration // European Scientific Journal. – 2018. – Vol. 14, No. 6. DOI: 10.19044/esj.2018.c3p14.
7. Kudaybergenova T.K., Ibodullaeva I.N., Kaljanov P. Muammoli yondashuv asosida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish // Ilim ha’m ja’miyet. – 2021. – № 4-2. – B. 33–35.
8. Ничишина Т.В. Профилактика девиантного поведения несовершеннолетних в школе и семье: пособие для педагогов учреждений образования. – Минск: Национальный институт образования, 2018.